



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta‘lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuyidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta‘lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

bo'lmay turib qoniqarli ijroga ham erisha olmaydi. Shu sabab bo'lsa kerak usozlarimiz ham shogirdlikni biror bir asarga qo'l urib emas, avvalo ustozining har bir harakatini uzoq vaqt davomida kuzatib o'zlashtirish, unga taqlid qilish asnosida boshlaganlar. Xususan xonandalik amaliyoti ham aynan kuzatish taqlid qilish bilan yillar davomida shakllanib, o'zlashtirib boriladigan jarayondir. Bo'lg'usi maqom ijrochilariga shuni ta'kidlab o'tish lozimki, avvalo maqomlar ijrosini ko'proq tinglash, xonandalik texnikasi va ovoz bilan bog'liq jarayonlar haqida ko'nikmalar xosil qilish va uni amaliyotga keng tadbiiq qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rajabov Is'hoq. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent. 1963.
2. Rajabov Azamat. An'anaviy xonandalik. O'quv qo'llanma. Buxoro. 2020.
3. Mamadaliyev F. "Milliy musiqa ijrochiligi masalalari" 2001.
4. "Qo'shiq - mening borlig'im" (R.Tursunov va M.Dadaboyeva bahsi); O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftanomasi.2008.
5. Isroilova H. An'anaviy hofizlik san'ati. – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2007.

KOMPOZITOR – FARRUX AKRAMOV

M.BAXTIYOROVA,

O'zbekiston davlat konservatoriyasi talabasi

Ilmiy rahbar: **Ch.E. ERGASHEVA, dotsent, PhD.**

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompozitor Farrux Isomiddinovich Akramovning hayoti va ijodiy yo'li haqida bayon qilingan. Uning pedagogik va kompozitorlik faoliyati davomida yaratgan asarlari – ijodiy merosi haqidagi ma'lumotlar musiqiy tahlil bilan birga keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** kompozitor, bayan-akkordeon, pyesa, "Omnibus Laboratorium", rondo.*

Yosh iqtidorli kompozitor, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, xalqaro va respublika tanlovlar sovrindori Farrux Isomiddinovich Akramov 1985 yilning 2 sentabrida Buxoro shahrida tavallud topgan.⁷² Yoshligidan san'atga qiziqqan Akramov ilk musiqiy tahsilni A.Ixtiyorov nomidagi 5-son bolalar musiqa va san'at maktabida bayan-akkordeon sinfida boshlagan. O'sha davrlardan oq kompozitorlik san'atiga bo'lgan qiziqishi tufayli, 13 yoshida akkordeon uchun pyesa yaratgan.

2001-yil M.Ashrafiy nomidagi Buxoro davlat san'at kolleji musiqa nazariyasi bo'limiga o'qishga kirib, 2002-yil o'qishni Hamza nomidagi Toshkent davlat san'at kollejiga ko'chirgan. Bu kollejda ustoz YE.L.Shvarsdan kompozitorlik sir-asrorlarini, fortepiano va boshqa cholg'ularning ijro xususiyatlarini o'rgangan.

Kollejni imtiyozli diplom bilan tamomlagach, 2004 yil O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" yo'nalishiga davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan. 4 yil bu shu yo'nalishda F.Yanov-Yanovskiy sinfida tahsil olib, ko'pgina ko'rik-tanlov, xalqaro hamda respublika ko'rik-tanlov va festivallarida faol ishtirok etgan.

⁷² Biografik ma'lumotlar kompozitor Farrux Akramov bilan suhbat jarayonida yozib olingan. 2023-yil. Oktabr.

Konservatoriyani tamomlagach, Qashqadaryo viloyatining Muborak shahridagi musiqa maktabida musiqa nazariyasi fanlaridan dars beradi. 2009 yil Buxoro davlat san'at kollejining musiqa nazariyasi bo'limida ish faoliyatini davom ettiradi. 2011 yil 2-yarmidan boshlab, V.A.Uspenskiy nomidagi RIMALda musiqa nazariyasi fanlari bo'yicha ustoz sifatida faoliyat yuritadi.

2012 yilda AQShning Konnektikut shtati Xortford shahri universitetiga o'qishga qabul qilingan.

2016 yil Xortforddan qaytgach, Yangiyo'l tumanidagi 75-son (hozirda 5-son) bolalar musiqa va san'at maktabida musiqa nazariyasi fanidan dars bergan. 2021 yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrasiga ishga taklif qilinadi va ish faoliyatini oliy ta'lim muassasida davom ettiradi.

Konservatoriya talabasi sifatida ta'lim olgan to'rt yili davomida Farrux Akramov orkestr, turli tarkibdagi ansambllar va yakkaxon ijrochilar uchun turfa janrlarda ko'plab asarlar yaratgan.

Xususan, 2005 yil Yosh kompozitorlar respublika ko'rik-tanlovida tenor va fortepiano uchun yaratgan "Vokal turkumi" asari bilan ishtirok etib, 2-o'rinni egallaydi. Bir yildan keyin o'tkazilgan ayni shu konkursda fleyta uchun ikkita pyesa hamda fortepiano uchun yozilgan "Sonatina"si bilan ishtirok etib, fahrli 1-o'rin sovrindori bo'ldi.

2005 yildan boshlab, olti yil davomida Yosh kompozitorlar uchun "Omnibus Laboratorium" xalqaro mahorat darslarida ishtirok etdi. Sirojiddin Rauf she'riga "Hech narsa so'rama", nemis shoiri Georg Trakl asari asosida "Tushkunlik", zarbli cholg'ular uchun "Atmosfera" va yana bir qancha asarlar yaratdi. "Omnibus Laboratorium" doirasida yaratilgan "Shom" asari xorijiy davlatlarda muvaffaqiyatli ijro etib kelinmoqda.

Yosh kompozitor 2007 yil AQShning Massachusetts shtatidagi Nort Adams shahrida bo'lib o'tgan yosh kompozitorlar va ijrochilar xalqaro festivalida qatnashgan va "Bang on a can" ansambli uchun "Beyond the mind" ("Ongning aks tomonida") nomli asarini yaratdi.

2008 va 2009 yillarda ikki yil ketma-ket Gollandiyada o'tkazilgan "Young Composers Meeting" xalqaro festivalida ishtirok etib, "Ruboiyot" (Umar Xayyom she'rlari asosida) va "Xayku" (yapon shoiri Matsuo Basyo asari asosida) asarlari uchun, 2010 yilda Shveysariyada o'tkazilgan "Pre-art" yosh kompozitorlar xalqaro tanlovida "Illyuziya" nomli asari bilan qatnashib faxrli o'rinlar bilan taqdirlangan.

Iqtidorli kompozitor she'riyatga aloqador asarlarida Rudakiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va boshqa ko'plab shoirlarning she'rlaridan ilhom manbai sifatida foydalanadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Farrux Akramov pedagogik faoliyati barobarida sermahsul ijodiy yo'lini ham davom ettirdi. Xususan, 2017-yilda yaratilgan – Rudakiy, A.Oripov va E.Vohidov she'rlariga – fleyta, vibrafon, arfa, tenor, alt va violonchel uchun vokal turkumi, 2018-yil goboy, valtorna va fortepiano uchun yaratilgan "Hafta kunlari" turkumi (5 ta qismi), 2019-yil magistrlik diplom ishi sifatida yaratilgan simfonik orkestr uchun konserti, 2019-yil Buxoroda o'tkazilgan "Ipak va Ziravorlar" festivali spektakli

uchun bastalangan musiqa, 2021-yilda A.Oripovning she'riga kamer-vokal asar yaratganligi hamda "Hafta kunlari" turkumi (2 ta qismi)ni yakulganligi yuqoridagi fikrimizning dalilidir.

2022-yil Farrux Akramovning "Beyond the mind" asari P.Chaykovskiy nomidagi Moskva konservatoriyasi Raxmaninov zalida – dirijyor Igor Dronov boshchiligidagi "Studiya Novoy Muziki" ansambli tomonidan muvaffaqiyatli ijro etildi.

2022-yil may oyida kompozitor BatyrLab halqaro loyihasi rezidensiyasida qatnashib, grant yutib oldi va Almata shahri ansambli "Igeru" uchun asar yaratdi. Shu yilning oktabr oyida Qozog'istonning Almata shahrida "The lost O'ral" asarining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Farrux Akramovning koinot mavzusiga qiziqishi 2010-yilda "Big bang" nomli simfoniyasining yaratilishiga turtki bo'ldi. Iqtidorli kompozitor o'zining ushbu mavzudagi 2-dasturli simfoniyasi – "Andromeda" nomli simfoniyasini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Ayni paytda iqtidorli kompozitor Farrux Akramov O'zbekiston davlat konservatoriyasining "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrasida pedagogik faoliyatini olib bormoqda. Kompozitorning ko'plab fortepiano uchun yaratgan asarlari konservatoriya talabalari tomonidan ijro etilib kelinmoqda. Xususan, Farrux Akramovning fortepiano uchun "Rondo" asari sof rondo shaklida yaratilgan bo'lib, janrning yorqin namunalaridan biridir. Fikrimizning isboti sifatida – quyida ushbu asarning tahlilini keltirib o'tishni maqul topdik.

Farrux Akramovning fortepiano uchun yozilgan "Rondo asari – mi minor tonalligida, 6/8 o'lchovida yaratilgan.

Asarning shakliy sxemasi – A V A S A + Soda ko'rinishida tasvirlanadi. Tuzilishi 3 ta refren, 2 ta epizod va kodadan tashkil topuvchi asar – gomofon-garmonik fakturada yozilgan. Buni biz refrendagi asosiy kuy tuzilmasida – asosiy kuyning o'ng qo'lda, jo'rnavoz vazifasi chap qo'ldagi arpedjioli kuy tuzilmasida yangrashidan anglashimiz mumkin.



Refren 16 taktdan iborat. Kvadrat shaklidagi takroriy tuzilmaga ega bo'lgan refren – 8 takt+8 takt ga bo'linadi (bunda davradagi 1-jumla 8 taktni, 2 jumla ham 8 taktni tashkil etadi).

Birinchi epizod 2 qismga bo'linib, buni 1-qismning – Iya miksolidiy ladida, 2-qismning Iya eoliy ladida yozilganligidan ham yaqqol anglash mumkin. Bunda Iya miksolidiy ladidagi epizodning 1-qismi 8 taktni, Iya eoliy yozilgan 2-qismi esa 8 taktni tashkil etadi.

Epizodning Iya miksolidiy ladida yozilgan qismining ilk 4 takti akkordlardan boshlanadi (17-takt).



Qolgan 4 taktida refrendagi ritm va fakturaga o‘xshashlikni kuzatish mumkin.

Epizodning Iya eoliy ladida yozilgan 8 takti refrenga ritmik jihatdan o‘xshib ketadi. Uning o‘ziga xos jihati o‘ng qo‘ldagi kuyning chap qo‘l (bas) da (kanon kabi) takrorlanishidir.



Refrenning ikkinchi marotaba takrorlanishi hech qanday o‘zgarishlarsiz (xuddi birinchi refren kabi 16 takt) yangraydi.

Ikkinchi epizod (trio) – refren va birinchi epizoddan ham farqli (50-takt).

U 14 taktdan iborat va do major tonalligida yangraydi. Refren va birinchi epizod kabi aniq kvadrat tuzilishga ajralmaydi hamda takroriy kuy tuzilmasiga ega emas. Epizodning boshlanganligi punktir usulidagi kuydan ham aniq bilinadi.

Epizodning 3-4 taktlarida chap qo‘lda “yashirin polifoniya” kuzatiladi (52-takt).



Epizodning so‘nggi 4 taktida kuy mi eoliy tonalligiga qaytadi va oxirgi refrenga tayyorlovdan so‘ng, 3-refren yangraydi. Bu safar ham refren hech qanday o‘zgarishlarsiz to‘liq 16 takti tashkil qiladi.

Refrendan so‘ng, 20 taktli soda yangraydi. Soda VII bosqich uchtovushligi va tonika nisbatidagi uchtovushliklarning oddiy motiv ko‘rinishidagi takroridan dinamik jihatdan rivojlanadi.



So‘nggi 4 taktda tonika uchtovushligining sinkopa ritmida takrorlanishi va fff dinamikasida asosiy tonallik tonikasining shiddatli akkord misolida yangrashi bilan asar nihoya topadi.

Farrux Akramovning “Rondo” asari o‘zida sharqona jilolarni mujassamlashtiradi. Asarning o‘lchovi ham o‘zbek raqsona janrlariga moyil bo‘lib, sinkopa, punktir kabi raqs xarakteriga xos bo‘lgan ritmlarni uchratish mumkin. Shuningdek, akkordlar tovushlarining sekundali nisbati, garmonik figuratsiyalardagi kvarta hamda kvinta intervallari nisbati – bularning barchasi o‘zbek milliy musiqasi koloristikasini namoyon qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, kompozitor Farrux Akramov ijodiy yo‘li davomida ko‘plab janrlarda asarlar yaratib, o‘zbek musiqiy merosi rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Kompozitorning yaratgan asarlari chet mamlakatlarida ham muvaffaqiyatli ijro qilib kelinayotganligi sharqona ruhdagi musiqaning dunyo miqyosida yuqori cho‘qqilarga erishishi uchun zamin yaratishiga ishonamiz!

К ПРОБЛЕМЕ ИЗУЧЕНИЯ ТВОРЧЕСТВА АЛИШЕРА ИКРАМОВА В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКОЗНАНИИ

С.А.АБДИВАЛИЕВА,

студентка IV-курса бакалавриата

кафедры истории музыки и критики ГК Уз.

Аннотация. Данная статья направлена на изучение творчества заслуженного деятеля искусств Узбекистана, композитора, аранжировщика и дирижёра Алишера Икрамова. Автор статьи раскрывает основные направления его творческой деятельности.

Ключевые слова: композитор, творчество, музыка, направление, импровизация, артистизм, эстрада.

В пору Нового Узбекистана музыкальная культура стремительно развивается, охватывая все сферы жизни общества: образование, науку и искусство. «В наш век информационных технологий, - подчёркивает Президент Республики Узбекистан Шавкат Миромонович Мирзиёев, - невозможно быть полностью оторванным от реальной жизни» [1, с. 166]. В этом плане активно развивается композиторское творчество, музыкальное образование и все направления музыкальной культуры, на которые интенсивно в соответствии с современным уровнем технического развития оказывают своё влияние новейшие технологии. Это открывает большие возможности для углубленного изучения современного узбекского композиторского творчества. В этом смысле большой интерес представляет личность и творчество заслуженного деятеля искусств Республики Узбекистан, композитора, аранжировщика и дирижёра Алишера Икрамова, находящегося в пору яркого расцвета своей многогранной творческой деятельности [2].